

Talabalarda dars jarayonida loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirishning texnologik va pedagogik fanlar integratsiyasi bosqichlari va modeli

Ubaydullayev Solijon Qoqirovich , dotsent v.b.(AndDPI)

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalari

Odilova Umidaxon Alisher qizi ,

To'ychiyeva Sanobarxon Erkinjon qizi.(AndDPI)

Annotasiya: maqolada xozirgi kunning mazmuni va muammolari mohiyati,shuningdek ,bo'lajak texnologik ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarida ijodkorlik,modellashtirish,modellashtirish ko'nikmalari rivojlantirishda fanlararo integrasiya muhim o'rin egallashi xaqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: **STEAM** dasturi,dizayn,ijodiy ko'nikmalar,texnik ko'nikmalar tarkiblarini birlashtirish,kasbga yo'naltirish,texnologik innovasiyalar

Pedagogika, psixologiya, metodika va ijtimoiy sohaga oid tadqiqotlarni o'rganish hamda ushbu yo'nalishlarda olib borilgan izlanishlarni tahlilidan kelib chiqib fanlar integratsiyasi asosida o'qitish ta'lim oluvchilarning ijodiy fikrlash, kreativlik, mustaqil fikr bildirish, ko'p fikrlilik, modellashtirish hamda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali usullaridan biri ekangili namoyon bo'ladi. Integratsiya turli sohalarda keng qo'llaniladigan tushuncha bo'lib, pedagogik fanlar sohasida ushbu tushunchani quyidacha talqin qilinadi. Integratsiya ta'lim berish jarayonida bir-biriga yaqin va mazmunan bir-birini to'ldiruvchi fanlarni o'zaro bog'lash va ta'lim oluvchilarda fanlar majmuiyaga oid bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishni anglatadi.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishda oliy ta'lim o'quv jarayonida o'qitiladigan "Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash", "Texnologik jarayonlarni loyihalash" va "Texnik ijodkorlik va dizayn" kabi fanlarni o'zaro integratsiyalash, fan mavzulari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ichki xususiyatidan kelib chiqib tashkil etish lozimligi kelib chiqadi.

Shuningdek, ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi talabalarda tabiat va jamiyat haqida keng tasavvurni rivojlantirish va amaliyotda samarali qo'llash imkoniyatini boyitishdan iboratdir. Fanlararo aloqadorlik ta'minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o'qituvchi o'quvchilarda o'zining faniga nisbatan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o'zlashtirishga yordam beradi. Fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o'quv-tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli darajada ortadi. O'qituvchilarda dialektik tarzda fikrlash ko'nikmalar shakllandi. O'qituvchilarda dialektik tarzda fikrlash ko'nikmalari shakllanib o'quv fanlarga oid bilim va qiziqishlari rivojlanib boradi. Berilgan o'quv materialini mavzular bo'yicha tahlil etish yo'li bilan turli fanlarni qaysi mavzulari bir-biri bilan aloqadorligi aniqlansa tarkibiy tahlil etilib, bunda o'quv materialining tashkil etuvchi tushunchalari, dalillari, qonuniyatlari o'rtasida aloqadorlik o'rnatiladi. Yuqori texnologiyali mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda umumiy o'rta ta'lim o'quv jarayonida tashkil etilayotgan zamonaviy o'qitish dasturlari, jumladan

STEAM dasturlaridan xabardorliklari, ushbu dastur asosida o'quvchilarga ta'lim berishga doir bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish ushbu dissertatsiya ishida qo'yilgan maqsadni amalga oshirish muhim omil hisoblanadi.

“Zamonaviy maktablarda robot dizayni, modellashtirish va dizayn loyihalashtirish ishlari yetakchi o'rinni egallamoqda. Mamlakatimizning raqobatbardoshligini oshirish uchun ko'proq texnik ta'lim talab etilayotganligi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish choratadbirlari to'g'risida”gi PQ-3931-sonli qarori bilan tasdiqlangan “2018-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi” ning II bo'lim, 11-bandida – umumiy o'rta ta'limning yangi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish va shu bilan birga STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika) ta'limini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni bajarish uchun, avvalo, ta'lim ishtirokchilari – pedagoglar, metodistlar, talabalar, ota-onalar va boshqalar STEAM ta'limi yo'nalishida o'tkaziladigan xalqaro tadqiqotlar haqida ma'lumotlarni bilishi hamda ularni amaliyotda qo'llash uchun malakalarga ega bo'lishlari zarur bo'ladi” [112]. Ma'lumki, Texnologiya fani kundalik hayotimizda doimiy qo'llaniladi, muhandislik esa uylar, yo'llar, ko'priklar va mashina mexanizmlarda o'z aksini topgan biror bir kasb, kundalik mashg'ulotlarimiz ozmi-ko'pmi matematik hisob-kitoblar bilan bog'langandir. STEAM ta'lim yondashuvi o'quvchilarga dunyoni tizimli ravishda o'rganishga, atrofda ro'y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o'zaro aloqani anglab yetishga, o'zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni ochishga imkon beradi. Qandaydir yangilikni kutish orqali talabada qiziquvchanlikni rivojlantiradi. O'zi uchun qiziqarli masalani aniqlab olishni, uning yechimini topishning algoritmini ishlab chiqishni, natijalarini tanqidiy baholashni, fikrlashni muhandislik stilini shakllantirishga olib keladi. Jamoaviy faoliyat olib borish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bularning barchasi talaba rivojlanishining yuqori bosqichga ko'tarilishini va kelajakda kasbiy faoliyatni to'g'ri tashkil etishga zamin yaratadi. Shunga ko'ra dunyoning ko'pgina mamlakatlarida STEAM yondashuviga katta e'tibor berilmoqda.

Jumladan, Yevropaning 10 dan ortiq mamlakatlari (Avstriya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Norvegiya, Angliya, Irlandiya, Ispaniya va boshqalar) milliy strategiya va tashabbuslarida bu hisobga olingan.

Yuqorida keltirilgan tahlillarga ko'ra tabiiy, texnik va ijtimoiy fanlar bilan ishlab chiqarish tuzilmalarining uzviy aloqadorligi, ya'ni integratsiyasini chuqurlashtirish ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Integratsiya jarayonida umumkasbiy tayyorgarlik tizimining har bir elementi (har bir o'quv fani) ma'lum darajada avtonomlikka ega bo'ladi, shu sababli o'rganish davomida butun tizimning o'zlashtirilishi darajasidan qat'iy nazar alohida baholanishi mumkin va kerak. Integratsiya jarayoni davomida tizim elementlari sifatida umumkasbiy o'quv fanlar o'rtasida o'zaro aloqadorlik hajmi va intensivligi ortadi, bu bo'lajak

texnologiya ta'limi o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorgarlik jarayoni samaradorligining oshishiga olib keladi.

Nazariy va amaliy bilimlarni integratsiyalash natijasida ularning bir-biriga o'zaro ta'siri ro'y beradi, unga muvofiq tarzda bilimlar o'rtasida namoyon bo'lishi tavsifiga ko'ra muntazam aloqadorlik yuzaga keladi. Nazariy va amaliy bilimlar integratsiyasi belgilaydigan tipiga ko'ra, bu – mavjud bo'lish (faoliyat ko'rsatish) aloqadorliklarida namoyish bo'ladi.

Fanlararo integratsiyani ta'minlash hozirgi vaqtda ob'yektiv ehtiyoj. Chunki oxir-oqibatda bo'lajak Texnologik ta'limi o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishda umumkasbiy va fanlar bo'yicha tayyorgarlikni birlashtirish kerak bo'ladi.

Batafsil fanlararo integratsiya tushunchasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, *birinchidan*, fanlararo integratsiyani amalga oshirish, ya'ni o'rganilayotgan hodisalarning yaxlit modelini qurish, aniq bilish va kasbiy vaziyatlarda bu hodisalar va qarorlar bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini ongli ravishda tushunishi uchun shart-sharoitlar yaratadi;

ikkinchidan, talabanning o'zi fanlararo integratsiyani amalga oshirishi uchun ko'nikmasini ta'minlash, ya'ni, maqsadli bilish muammolarini yechish jarayonida fanlar va yaxlit modelini quradi;

uchinchidan, bo'lajak mutaxassis shaxsini yaxlit shakllantirish uning umuman dunyoni va kasbiy faoliyatini ko'ra olish hamda integral (ajralmas) fikrlashiga yordam beradi;

to'rtinchidan, fanlararo integratsiyani oliy ta'lim sifatini rivojlantirish vositasi sifatida talqin etiladi. Bo'lajak Texnologiya o'qituvchilarida fanlarni o'zaro integratsiyalash orqali talabanning loyihalash, umumkasbiy va maxsus kompetensiyalari o'rtasidagi aloqadorlikni, fanlararo integratsiyada yuzaga keladigan qiyinchiliklarni oldini olish imkoniyati hosil qilinadi. Natijada integratsiyalashgan ta'lim sharoitida talabalarning loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarining loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishga asoslangan modelga muvofiq tashkil etish to'g'ri tanlangan metodik tamoyillar tizimi va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar asosida samarali amalga oshiriladi.

Ishlab chiqilgan modelni o'quv jarayoniga tatbiq etish loyihalash kompetensiyani rivojlantirishni faollashtirishni ta'minlaydi. Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar deganda oliy ta'limda pedagogic jarayonni talaba shaxsini shakllantirishga, uning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoitlarni anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ubaydullayev S.Q.- Texnik ijodkorlik va dizayn. O'quv qo'llanma. – Andijon: 2023 - yil
2. Muslimov N.A. Bo'lajak o'qituvchining loyixalash faoliyati. 2012. O'quv qo'llanma. 6,1 b.t.

3. Muslimov N.A., A.I. Turakulova, Qodirov M.M., X.A. Umarov. Kasb ta'limi o'qituvchisining axborot olish kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. TDPU Rizografi, T.: 2014. 4,5 b.t.
4. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov SH.N. Bo'lajak o'qituvchining loyixalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014. 6,5 b.t.
-
5. Ulukhanov, I., & Khusayinova, G. (2024). DIGITALIZED LEARNING AND ITS EFFECTIVENESS IN TECHNOLOGICAL EDUCATION. *Science and innovation*, 3(B4), 236-243.
6. Uluxanov, I. T. X. J., & Ubaydullaev, S. Q. (2021). O'QUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLIKINI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI. *Scientific progress*, 2(8), 814-822.